

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrsasi katta o'qituvchisi

Email: ms.zulfiyaxon08@gmail.com

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz - hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azm-u shijoatli, buyuk xalqmiz

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:05.09.2025

Revised: 06.09.2025

Accepted:07.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

*sharq mutafakkirlari,
tarbiya, pedagogik
qarashlar, ma'naviyat,
axloq, meros, zamonaviy
ta'lim..*

Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari, ularning asarlarida ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar hamda mazkur merosning zamonaviy talqini tahlil qilinadi. Al-Farobiy, Koshifiy Xusayn Voiz, Alisher Navoiy, A.Avloniy kabi buyuk allomalar qarashlari asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari ochib beriladi. Shuningdek, bugungi ta'lim jarayonida mazkur merosdan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Tarbiya masalasi insoniyat taraqqiyoti tarixida eng muhim ijtimoiy hodisa sifatida qaralib kelgan. Sharq mutafakkirlari, jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalar hamda jadid ma'rifatparvarlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy o'z asarlarida barkamol inson tarbiyasini jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida talqin etganlar.

Al-Farobiy maqsad qilgan manzil, avval aytilganidek, mavjudotlarning oliy tamoyillari va ularning tartibdagi o'rniga oid aniq bilimga erishishdir. Bu bilim esa o'z navbatida fazilatli shahar aholisi uchun baxt-saodatga eltuvchi aniq amallar asosiga aylanadi.

Bu sa'y-harakatning boshlang'ich nuqtasi insonda tug'ma tarzda mavjud, biroq u buni darhol anglab yetmaydi va uni qayerdan olganini sezmaydi. Bu — **asosiy bilimdir**. Birlamchi bilimlar orqali dastlabki mulohazalar ma'lum bo'ladi; shundan keyin tekshiruv, xulosa chiqarish, ta'lim va o'rganish orqali qo'shimcha bilim hosil qilinadi.¹⁵⁶ Quyidagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, jamiyatda haqiqiy baxt va saodat faqat ilm va fazilat uyg'unligida shakllanib boradi.

Tarbiya - shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.¹⁵⁷

Qadimiy Turonzamin va Eron zamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardo'shtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Zardo'shtiylik ilohi Axuramazda – ezgulik, Axriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Zardo'shtiylik dinini ma'lum ma'noda axloqiy e'tiqod, uning muqaddas ki- tobi "Avesto"ni qadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axloqiy tushunchalar va ko'rsatmalar majmui, deyish mumkin. Qadimgi Yunon allomalari Suqrot, Aflotun, Arastu ta'lim-tarbiya, axloqshunoslik borasida bir qator qarashlarni ilgari sur- gan. Arastu antik dunyo fuqarosining an'anaviy fazilatlari bo'lmish donishmandlik, mardlik, odillik, do'stlikni yuksak qadrlaydi. Konfutsiy ta'limotida asosiy axloqiy qonun, asosiy axloqiy tushuncha – "jen" (insoniylik)dir. Masalan, "Lun yuy" (Hikmatlar) kitobida shunday deyiladi: "Kimki chin dildan insonni sevishga intilsa, u yovuzlik qilmaydi."¹⁰ Abu Nasr Forobiy Arastu izidan borib, falsafani ik- kiga: nazariy va amaliy jihatlariga ajratadi va axloqiy tarbi- yani amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy muammolar uning "Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob "Fozil odamlar shahri"¹¹ kabi asarlarida yoritilgan. Mutafakkirlar o'z asarla- rida insonni yoshligidan aqliy va jismoniy jihatdan tarbiya- lab,

¹⁵⁶ Shamas Malik Naoji **AL-FOROBIYNING TA'LIM FILOSOFIYASI** Magistrlik darajasini olish talablari qisman bajarilishi sifatida Islomshunoslik institute Magistrlik san'at darajasi uchun Aspirantura fakulteti va tadqiqot bo'limiga topshirilgan tezis MakGill universiteti Monreal May, 1989 © Shamas Nanji

¹⁵⁷ Сафарова Р. Г. Педагогическое сотрудничество как фактор развития и стимулирования творческого мышления учащихся // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2013.

sabot-matonatli, ajdodlar an'anasiga bo'ysunadigan, axloqan pok, ezgu niyatli, barkamol bo'lishiga alohida e'tibor bergan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida kishi- dagi ijobiy fazilatlar uni doimo kamolot sari yetaklashi, inson doimo o'z tarbiyasiga e'tiborli bo'lib yurishi zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, unda uyat-andisha, or - nomus, vatanparvarlik, xushmuomalalik, shirinso'z, kattaga hurmat, kichikka izzat, o'z-o'zini hurmat qilish, ochiq yuzlilik, aqlli va dono, bilimli, xulqi xush kabi – jami 17 ta fazilatlar yoritilgan.

Jumladan, uning:

Birisi shoshilmoq, biri-ko'zi och,

Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.

To'rtinchi – yovuzlik, buzuq fe'llilik,

Oxirgisi – yolg'on, qo'pol tillilik.

Bulardan tubani yomon fe'l erur,

Yomon fe'l kishiga alamlar berur.

Ochiq yuz, shirin so'z, mayinlik kera

Biz farzand tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, beixtiyor milla- timizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy muno- sabat, go'zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning: "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir", – degan fikrlarida olam-olam ma'no bor. Mutafakkirning bu fikrida bugungi ota-onalarimiz o'zlari namuna bo'lgan holda oilalarida, ishlarida, ro'zg'orlarida, uy tutishlarida, o'zaro munosabatlarida, yurish-turishlari- da, kiyinishlarida, salomatliklarida, farzand tarbiyasida, ular bilan bo'ladigan muomalada go'zallikni yarata olishla- ri zarur, degan g'oya o'z aksini topgan. Ajdodlarimiz ham o'z- lari namuna bo'lgan holda o'z farzandlariga pandu nasihat- lar qilganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy: "Har inson kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak", — degan ekan. Arab hikmatlarining birida: "Uch narsa kishi aqlini pesh- laydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi hayotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilish. Inson ikki narsaning qadrini faqat yo'qotgandagina biladi: biri yoshlik, biri sog'liq", — deb ta'kidlangani bejiz emas. Darhaqiqat, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala va munosabatda bo'ladi hamda o'sha jamiyatdagi insonlarning axloqi, tarbiyasi ko'zgusida yashaydi, unga ko'nikib ketadi.

Tarbiya natijasida jamiyat farog'ati yuzaga keladi. SHu-ning uchun bu xususda uch kalima so'z va fikr yozildi.

Xusayn Voiz Koshifiy Sharkring mashxur allomalaridan biridir. U axlok, tarix, tasavvuf soxalariga doir ko'plab asarlari necha asrdiki qo'ldan-qo'lga o'tib o'qib kelinmoqda. U o'zining "Futuvvatnomai sultoni; Axdokiy muxsiniy" asarida farzand tarbiyasida ota-onaning vazifalari haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan. Eng birinchisi farzand (shaxzodalar) tarbiyasidir. "Mamlakat xazinasi"da aytilganki, farzand Haqning omonatidir. Ota-ona oldida maxshar vaktida bu omonat xdqki talab kilinadi. Bu omonat go'yoki oyina — butun borlik ko'zgusi, avvali-dir. Haqiqat javoxrri uni nimaga xoxlasa, o'shanga moyil kilishi mumkin. Demak, zarurat bo'yicha farzandni to'g'ri tarbiya kilish kerak, toki yokimli sifatlariga ega bo'lsin. Birinchisi, unga chiroyli nom berish kerak. Agar farzand nomi munosib bo'lmasa, ma'lum muddat yashagandan so'ng unda o'z otiga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Yana mo'tadil tabiatlik va xushmuomala va pokiza ko'rinishli bo'lsin.¹⁵⁸

Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'gitlarni, aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi. Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratgan. Madrasada ta'lim olayotgan har bir talabadan ilmga qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilmfanni mustaqil holda o'rganish, yetuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi. Alisher Navoiy bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur, deydi. Bunday har qanday qiyinchilikni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish ko'rish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi.¹⁵⁹

Abdulla Avloniyning xalqni ilm-u ma'rifatga da'vat qiluvchi ilmli, bilimli bo'lishga chaqiruvchi she'r va hikoyalari axloqiy tarbiyaning muhim vositasidir. "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligidagi "Ilm", "Aqsomi ilm", "Fatonat", "Hifzi lison", "Jaholat", "Haqqoniyat" boblarida bu masalaga batafsil to'xtalib o'tadi. Avloniyning fikricha, ilm deb

¹⁵⁸ Кошифий Хусайн Воиз. К 7 6 Футувватномаи султоний; Ахдоқӣ мухсиний / Кошифий, Хусайн Воиз; нашрга тайёрловчилар: М.Аминов, Ф.Ҳасанов. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. -376 бет.

¹⁵⁹ Akramov Mehriddin Mirzayevich ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

o'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Millat kelajagi, taraqqiysi yoshlarning ilm va ma'rifatga, hunar va san'atiga bog'liqdir. Avloniy pedagogik ijodida ilm-u ma'rifatga da'vat qiluvchi she'rlar muhim o'rin egallaydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, shoirning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plamiga kirgan aksariyat she'rlardan o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash maqsadida foydalanish

mumkin. Shu sababli biz Abdulla Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plamiga kirgan ilm-u ma'rifatga da'vat qiluvchi she'rlarini:

- talabalarni axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari keng bo'lgan jihatlar;
- yuqori sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo'lgan she'rlar;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo'lgan she'rlarga bo'ldik.¹⁶⁰

Jamiyatda xushmuomala, tarbiyali, aqlli, tashabbuskor, faol insonlarni hamma yaxshi ko'radi. Mutafakkirlarimizning tarbiya, ilm, fanga oid qarashlarini quyida keltirishdan maqsad, ular farzand tarbiyasida unumli foydalanishda oz bo'lsa-da, yordam beradi, deb umid qilamiz.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida insonni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda tarbiyaning hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaganlar. Ularning qarashlarida ilm va fazilat uyg'unligi, ezgulik va insoniylik, ma'naviy-axloqiy poklik, ilm-fanga muhabbat asosiy tamoyil sifatida ilgari surilgan. Mutafakkirlarning bu merosi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, milliy tarbiya tizimimizni takomillashtirishda mustahkam nazariy asos vazifasini bajaradi. Xususan, oilada va ta'lim muassasalarida yosh avlod tarbiyasida ularning hikmatlari, nasihatlari va g'oyalari samarali qo'llanishi jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari, Toshkent «O'zbekiston» 2020 - y. 44-b.

2. Shamas Malik Naoji **AL-FOROBINING TA'LIM FILOSOFIYASI** Magistrlik darajasini olish talablari qisman bajarilishi sifatida Islomshunoslik institute Magistrlik san'at darajasi uchun Aspirantura fakulteti va tadqiqot bo'limiga topshirilgan tezis MakGill universiteti Monreal May, 1989 © Shamas Nanji

¹⁶⁰ Shuhrat HAMROYEV, Gulrux DO'LANOVA Karshi State University Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>, 79-83-b.

3. Сафарова Р. Г. Педагогическое сотрудничество как фактор развития и стимулирования творческого

мышления учащихся // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2013.

4. Кошифий Хусайн Воиз. К 7 6 Футувватномаи султоний; Ахдокрй мухсиний / Кошифий, Хусайн Воиз; нашрга тайёрловчилар: М.Аминов, Ф.Асанов. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. -376 бет.

5. Akramov Mehridin Mirzayevich ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

6. Mirzaliyevna, S. Z., & Munisa, J. R. (2024). BOSHLANG'ICH SINIFLARDA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. *University Research Base*, 404-408.